

O'QUVCHILARNI 1-SINFGA TAYYORLASHDA OTA-ONALARING O'RNI

N.M. O'rnova
FarDu professori v.b., p.f.n

M.A. Davlatboyeva
Fardu talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ota-onalarning tutgan o'rni va ular ahamiyat berishi lozim bo'lgan jihatlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, tayyorgarlik, psixologik tayyorlash, maktabgacha ta'lim.

Shaxs shakllanishida oilaning roli katta hisoblandi. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shuning uchun ham oilada sog'lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umum davlat ahamiyatiga molik masalalardandir. Sababi, ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o'zgarishlar, ya'ni undagi yutuq va kamchiliklar, murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o'z aksini topadi. Shunga ko'ra oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muammo bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Hayotning birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya'ni uning tarbiyasi bilan shug'ullanish oilaning asosiy vazifaisidir. Oila bola uchun dastlabki hayot mакtabidir. Ota-ona esa ulatning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidirlar.

Bolalarni maktabga tayyorlashda oila alohida ahamiyat kasb etadigan maskandir. Bola tarbiyasi oilaning barcha a'zolaridan nafaqat, bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun mas'uliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir.

Birinchi sinfga kelayotgan bolalar har xil bo'ladi. Kimdir bog'chadan hamma narsani bilib, tushunib kelsa, yana kimdir uydan keladi.

Oila bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borishi yaxshi samara beradi.

Bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to'g'ri hal qilinishi tarbiya ishining quyilishiga kompleks yondoshishga tarbiyaviy muassasalarning, oila va jamiyat chilikning to'liq o'zaro ta'siri va harakatlarning birligiga bog'liq.

Bolalar maktab ta'limiga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar haqida gapirar ekanmiz, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni oilada tarbiyaning ota-onalar bilan hamkorlikda, bundan keyin yanada takomillashtirish yo'llarini izlab topilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlashda maktabgacha tarbiya muassasasi xodimlarining, pedagog olimlar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchi va uslubistlaming o'rni juda ham kattadir.

O'zbekiston Respublikasida "Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizom"ga muvofiq maktabgacha ta'limni uyda ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya muassasalarida, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilingan bolalar uchun bolalar bog'chasida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bola tarbiyasida oilaning barcha a'zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni, ularning taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir. Oilada bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani ha tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Ma'naviy tarbiyani bolaga o'tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berib, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik va vatan haqidagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an'analarimizni o'rgatish orqali singdirish mumkin. Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadi-ki boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yaxshi natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burch va sadoqat, minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi. Kelajak avlodga estetik tarbiya berishda ham oilaning muhim o'rni bor. Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur. Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko'nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyyot qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir. Maktabgacha talim yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomilishtirish yo'llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini

mustahkamlash mактабгача тарлим ташкilotлари xодимлари pedagogik omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muhim vazifasidir. Bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to‘g‘ri hal qilinishi tarbiya ishining qo‘yilishiga kompleks yondashishga, tarbiyaviy muassasalarning, oila va jamiyatichilikning to‘liq o‘zaro ta’siri va harakatlarning birligiga bog‘liq. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani bog‘chadayoq yoki uydayoq maktab ta’limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo‘lmagan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish lozim.

Bola kunning asosiy qismini mактабгача ta’lim muassasasida o‘tkazsa ham, inson kamoloti uchun eng muhim bo‘lgan omillardan biri tarbiyaning tamal toshi oilada qo‘yiladi. Shu sababli ham mактабгача pedagogikaning asosiy maqsadi bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga har tomonlama tayyorlashda mактабгача ta’lim muassasasi bilan oila hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga bolani mактабга obyektiv va subyektiv tayyorlashda oilaning, ya’ni ota-onaning o‘ziga xos vazifalari va majburiyatlarini ham mavjud bo‘lib, aynan shu majburiyatlarning to‘g‘ri bajarilganligi bolaning maktab ta’limiga tayyorligini ifodalaydi. Bolani boshlang‘ich ta’limga borishi haqida kengroq yondashadigan bo‘lsak, bu davr nafaqat bola uchun emas, balki uning oilasi uchun ham murakkab davr hisoblanadi. Boshida mактабга borganida ular uchun hammasi qiziqarli tuyiladi. Hammma qiyinchiliklar esa keyinroq bo‘ladi. Ya’ni ertalab vaqtli turish, o‘quv qurollarini tayyorlash, o‘qituvchi majburiyatlariga javob berish, eng asosiysi 45 daqiqa bitta joyda o‘tirish. Boshlang‘ich ta’limga borganida bolada yangi tengdoshlar orasida moslashish, yozish, o‘qish ko‘nikmalarini egallash kabi yangi holatlarga moslashish jarayoni sodir bo‘ladi. Moslashishga qancha vaqt ketadi: bu albatta yakka tartibda kimgadir 2 hafta , kimgadir oy , kimgadir esa butun bir yil. Bu vaziyatda o‘quvchiga , bolaga qanday yordam berish mumkin? Bu yerda har xil omillar rol o‘ynaydi. Bolaning o‘ziga xos xarakteri, oila muhiti, pedagogning kasbiy mahorati, maktab va sinf muhiti, albatta. Bu holatda oila muhitiga alohida to‘xtalish lozim, ayniqsa onalarga. Nima uchun degan savol tug‘iladi. Axir mактабга ota –ona emas farzandi boradiku. 1-sinfga bola borgani bilan uning ota-onasiga ikki barobar mas’uliyat tushadi. Balki ota-onaga sezilmasligi mumkin, ammo ularning psixologik, fiziologik holatlari yaqin atrofdagilarga, ya’ni farzandlariga seziladi.

Darhaqiqat, sog‘lom onadan sog‘lom muhit va kelajagi porloq farzndlarning shakllanishiga asos bo‘ladi. Moslashish paytida farzndlarni ko‘proq qo‘llab quvvatlash lozim. Ota-onalar ba’zida bolasidan “ sen katta bo‘lding , 1-sinfga chiqting” deb ko‘p narsani talab qilishadi. Vaholanki, bu yoshda bola hali ham yordamga muhtoj bo‘lishadi. Bolaga xato qilish bu me’yor ekanligini va oilasi uni doim qo‘llab

quvvatlashini tushuntirish lozim. Bu narsa uning o‘z kuchiga ishonishiga yordam beradi. Bolani maktab ta’limiga tayyorlashda oila a’zolari ba’zi ilmiy asoslarni bilishlar va hisobga olishlari lozim.

Bolani maktabga tayyorlashda ota-onal avvalo, bolaning diqqat turg‘unligini, xotira faolligini, so‘z boyligini, tafakkur rivojini ta’minlashi lozim. Ota-onaning faolligi bolaning maktab ta’limiga tez va oson moslashishiga, qo‘l motorikasini rivojlanishiga, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini mustahkamlanishiga zamin yaratishi mumkin. Bolaning maktab ta’limiga ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma’naviy tayyorlashida ota-onal e’tibor berishi lozim bo‘lgan jihatlar:

Birinchidan, bolaning kun tartibi qat’iy bo‘lishi lozim. Bola vaqtida ovqatlanishi, dam olishi, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishini ta’minlash kerak. Agar bolada kamqonlik alomatlari bo‘lsa, bu albatta uning o‘qish faoliyatiga ta’sir qiladi, bolada bilish jarayonlarining sustligi kuzatiladi. Shunday ekan, ota-onal bolaning ovqatlanish ratsioniga ham alohida e’tibor berishi darkor.

Ikkinchidan, ruhiy zo‘riqishni oldini olish uchun ota-onal avvaldan, bolani o‘qish jarayoniga, 45 daqiqalik dars jarayoniga, yangi muhitga moslashishiga tayyorlab borishi kerak. Buning uchun ota-onal uy sharoitida farzandining do‘stlari bilan ”maktab-maktab”, oilaviy —”bilag‘on-topag‘on” kabi o‘yinlarni tashkil etib, bolani ixtiyoriy ravishda uzoq muddat shu mashg‘ulot bilan shug‘ullanish ko‘nikmasini tarkib toptirishi zarur.

Uchinchidan, bosh miya strukturasining yaxshi rivojlanishi, asab-psixika holatining tayyor bo‘lishi turli qo‘l-motorika o‘yinlariga ham bog‘liq. Shunday ekan, ota-onal bolani tayyorlashda mayda qo‘l harakatlarini talab qiluvchi o‘yinlar va mashg‘ulotlarni tashkil etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

To‘rtinchidan, bola ota-onaning mehrini, o‘zini kerakligini his etishi lozim.

Ota-onaning bunday ruhiy qo‘llab-quvvatlashi bolada o‘ziga ishonch hissini mustahkamlaydi, yangi sharoitga, muhitga tez moslashishiga yordam beradi.

Farzandingizning muvaffaqiyatiga ishonch hosil qiling, uni har qanday, hatto kichik yutuqlari uchun maqtang. Vazifalarning qiyinligini asta-sekin oshiring. Oldingi material yaxshi tushunilganligiga ishonch hosil qiling. Farzandingizga intizom nimani anglatishini tushuntiring. Fikringizni to‘g‘ri bajarishni va himoya qilishni o‘rgating. Tez-tez gapiring, o‘qing, muloqot qiling.

Xulosa tarzida shuni ta’kidlash lozimki, bolani maktabga tayyorligini faqat uning yozishi va o‘qiy olish ko‘nikmalarigina tashkil qilmaydi. Ota-onal o‘z farzandini maktab ta’limiga tayyorlashda uning ruhiy, jismoniy, ma’naviy rivojlanishi shakllantirishi, o‘qish motivatsiyasini tarkib toptirishi, individual xususiyatlariga asoslangan holda, diqqat, xotira, tafakkur, xayol, iroda sifatlarini mustahkamlashi lozim. Har bir bola bolalar jamoasiga kira olish, boshqalar bilan birga harakat qilish,

ba'zan yordam berish, ba'zan o'zini himoya qilish ko'nikmalarini egallay olishi lozim. Shundagina u shaxslararo munosabatlarda ijobiy natijaga erishib, atrofdagilarga nisbatan samimiy va hayrixoh bo'ladi, bu esa, komillik sari ilk qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Asadov Y., M., Maktab amaliy psixologiyasi. Toshkent-1999.
2. Bola shaxsining rivojlanishining dolzarb muammolari. 11-xalqaro ilmiy amaliy anjumanning tezis va maqolalar to'plami.2008.
3. Boshlang'ich sinf takomillashtirilgan davlat ta'limi standarti "Boshlang'ich ta'lim" 2005 yil 6-son.
4. Boshlang'ich ta'lim takomillashtirilgan o'quv dasturi, ona tili, "Boshlang'ich ta'lim" 2005-yil 6-son.
5. Dolimova D., Bolalarni qurish yasashga o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish metodikasi(tayyorlov guruh misolida).Namangan-2019.6-b